

O‘QUVCHILARNING DASTLABKI CHET TILI TA’LIMIDA INTELEKTUAL IJODIY YONDASHUVNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI

Jabborova Maftuna Komil qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘quvchilarining dastlabki chet tilidagi ta’limida ijodiy intellektual yondashuvini shakllantirishning pedagogik modeli haqida ma’lumot berilgan. Modelning maqsadi, vazifalari va uni amalga oshirish bosqichlari yoritilgan. Bu jarayonda foydalaniladigan yondashuvlar, metodlar, usullar, shakllar bilan tanishtirilgan. Ular asosida o‘quvchilarda chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan ijodiy intellektni shakllantirish masalasi yoritilgan. Va modelning, ko‘zlangan maqsadga erishishdagi afzalliklari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar

kognitiv, operativ, adekvativ, indikativ, gnostik, aksiologik.

Tashqi dunyoni o‘rganishning eng samarali ilmiy usullaridan biri bu –modellashdir. Modellash obyekt va hodisalarning modelini yaratish orqali amalga oshiriladi. Ensiklopedik lug‘atda, “Model” tushunchasi umumiy ma’noda an’anaviy tasvirlash bo‘lib, tabiatdagi har qanday ob’ekt, hodisa va jarayonlarni “haqiqiy” ko‘rinishining “vakil”i sifatida namoyon bo‘ladi. Falsafiy lug‘atda esa modellash obyektning xususiyatlarini boshqa bir obyektga takrorlash sifatida belgilanadi va aynan ularni o‘rganish uchun maxsus ishlab chiqilgan.

I.B.Novik o‘zining “Murakkab tizimlarni modellash” nomli falsafiy ocherkida, modelni sun’iy deb hisoblaydi va o‘rganilayotgan narsaning tabiiy ko‘rinishidir deydi. Yozuvchining fikricha, “O‘rganilayotgan obyektlar haqidagi ma’lumotlarni ma’lum bir qoida ososida turli bosqichlarda amalga oshirishni o‘rgatadi va tajriba asosida tasdiqlaydi”. [5; 42-6]. U S.I.Ojegovaga esa, model tushunchasiga –“Biror bir predmetning qisqartirilgan ko‘rinishi yoki aynan tabiiysiga o‘xshagan kichik o‘lchamidir” deya ta’rif beradi. [6; 944-6.]


V. A. Shtoffning model haqidagi fikrlari eng samarali metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Uning fikricha “Model ma’naviy yoki moddiy jihatdan amalga oshirilgan tizim sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘rganilayotgan obyektga yaqindan o‘rganishga imkoniyat yaratadi hamda obyektlar to‘g‘risida bizga yangi ma’lumotlar beradi”. V.A.Shtoff o‘z ilmiy izlanishlarida har qanday model tabiatan cheklanganligini isbotladi, va ularning muhim xususiyatlarini keltirib o‘tdi. Ular-natijaviy, oddiy, taxminiy va adekvativ xususiyatlardir. Shunga o‘xshash fikrlarni V.V. Guzeev [2], L. B. Itelson [3], N. V. Kuzmina [4], va boshqa tadqiqotchilar ham ma’qullashgan va ular modelni muayyan xususiyatga ega bo‘lishi kerak deb hisoblashgan. Ularning fikricha modelning yana bir muhim xususiyati uning ko‘p qirrali ekanligi va nostandart turdagi muammolarga yechim topa olishidir.

Bir qancha olimlar o‘z tadqiqot ishlarida bolaning ijodkorligi va intellektual rivojlanishlanishi jarayoni muammolarini o‘rganishgan. Ushbu muammo yuzasidan o‘z modellarini yaratishgan. Jumladan, bolaning psixologik qobiliyatlarini G.J.Eyzenk,

N.V.Volinkina, J.Piaje, S.L.Rubinshteyn, B. M. Teplov, M. A. Xolodniy, V.D.Shadrikov, ijodkorlik faoliyatining muhim mexanizmlarini darajali modelini Ya. A. Ponomarev, intellektual va ijodiy harakatlarning o‘zaro bog‘liqlik modelini M. Vallach, N. Kogan, shaxsiy motivlar asosida ijodiy qobiliyatlarning rivojlanish darajasini aniqlash modelini D. Hargreaves, P. Vernonlar, yaratishgan. Shuningdek, 5 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni intellektual va ijodiy rivojlantirishning zamonaviy modelini G. X. Vaxitova, M. A. Zamuraeva, T.V.Simaeva va boshqalar yaratishgan.

Bolani intellektual va ijodiy rivojlantirishning bir qancha modellarini ko‘zdan kechirdik, tahlil qildik va natijalarini xulosaladik. Ana shu modellar asosida o‘quvchilarning dastlabki chet tilidagi ta‘limida intellektual ijodiy yondashuvini shakllantirishning pedagogik modelini yaratdik. Pedagogik modelni yaratishda ko‘zlangan natijaga erishish uchun, bolalarning intellektual ijodiy shakllanishiga e‘tibor qaratdik. Intellektual ijodiy yondashuvning komponentlari sifatida: emotsional-motivatsion, informatsion- kognitiv, operativ va reflektiv-axloqiy komponentlardan foydalandik. Bu komponentlar o‘quvchilarning intellektual ijodiy yondashuvini psixologik nuqtai nazardan yanada to‘liqroq o‘rganishga imkon berdi. Ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni anglash va ularga asoslangan holda pedagogik modelning yaratilishi bolaning intellektual ijodiy yondashuvi mazmunini nazariy va amaliy jihatdan yanada to‘liqroq ochib berishga xizmat qildi.

Dastlabki chet tili ta‘limida o‘quvchilarda intellektual ijodiy yondashuvni shakllantirishning pedagogik modelini amalga oshirish bosqichlari:



Dastlabki chet tili ta‘limida o‘quvchilarda intellektual ijodiy yondashuvni shakllantirishning pedagogik modelini tarkibiy qismlari:

| Maqsadli | Metodologik | Amaliy | Diagnostik |
|--|---|--|--|
| <ul style="list-style-type: none">• maqsad• vazifalar | <ul style="list-style-type: none">• tamoyillar• yondashuvlar | <ul style="list-style-type: none">• dastur• dasturning amalga oshirilish bosqichlari• shakllari• metodlar• vositalar | <ul style="list-style-type: none">• mezonlar• darajalar |

Maqsadli qism. Modelning maqsadi- o‘quvchilarda dastlabki chet tili ta‘limida intellektual ijodiy yondashuvni shakllantirish jarayonidir. Belgilangan maqsad quyidagi vazifalarni hal etish orqali amalga oshiriladi:

1. Bolaning har kungi kundalik hayot faoliyatida bajaradigan vazifalari va ta‘lim jarayonidagi topshiriqlarini chet tilidagi o‘quv materiallari asosida olib borish;
2. Atrofini o‘rab turgan barcha predmetlar va voqea- hodisalarga ijodiy yondashuvchi munosabatni shakllantirish;
3. Axloqiy xulq- atvorini nazoratga olish orqali kelajakdagi ijodiy faoliyatini rivojlantirish;

Metodologik qism. O‘quvchilarning dastlabki chet tili ta‘limida intellektual ijodiy yondashuvini shakllantirish jarayonini takomillashtirishda bir qancha yondashuvlarga asoslanamiz. Ushbu yondashuvlar: Tizimli yondoshuv- bolalarning intellektual ijodiy rivojlantirishni barcha komponentlarini uzluksiz va yaxlit tizim sifatida o‘rganishga imkon beradi. Madaniy- tarixiy yondashuv - intellektual ijodiy yondashuvni maksimal darajada rivojlantirishni hisobga olgan holda tashkil etilgan o‘yin shakli orqali amalga oshiriladi. Madaniy sohadagi muloqotlar katta maktabgacha yoshdagi bolalarning milliy madaniyatini shakllantirishga hissa qo‘shadi. O‘z ona tilidagi so‘zlarning axloqiy sifatlariga e‘tibor qaratadi, kundalik hayotda hamda ta‘lim jarayonida ularni qo‘llay olish malakasiga ega bo‘ladi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv-bolalarni intellektual ijodiy rivojlantirishda yosh xususiyatlarini hisobga oladi. Bu jarayonda kattalar va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik faoliyati faol tarzda amalga oshiriladi. Faoliyatga asoslangan yondashuv- bolalarni intellektual ijodiy rivojlantirishda ma‘lum bir maqsadli faoliyatga asoslaniladi. Muammolarni hissiy jihatdan hal etish va bartaraf etishga imkon beradi. Qo‘yilgan maqsadga erishish va natijalarga ega bo‘lishda bola shaxsiga motiv beradi. Aksiologik yondashuv- bolaning intellektual ijodiy yondashuvini shakllantirishda qadriyatlarni hisobga olish bo‘yicha ko‘rsatmalar beradi.

Yuqoridagi yondashuvlar asosida ish olib borish bolaning nafaqat chet tillari balki ona tilida ham muloqot qilish darajasining oshishiga hissa qo‘shadi, intellektual ijodiy rivojlanishda yetakchi rol o‘ynaydi. Bundan tashqari bu yondoshuvlardagi integratsiya bolaning kelajakda o‘z-o‘zini rivojlantirish mexanizmlarini ishga tushirishga imkon beradi. Ushbu mexanizm bolaning ta‘lim olish jarayonida, ma‘lum bir kasbiy faoliyatida va kundalik turmush tarzida o‘z aksini topadi.

Amaliy qismi. Pedagogik modelning amaliy qismi ko‘zlangan natijaga erishishimiz uchun muhim hisoblanadi. O‘quvchilarning dastlabki chet tili ta‘limida intellektual ijodiy

yondashuvini shakllantirishimizda bu bosqichning o‘rni eng yuqori darajada desak adashmaymiz. Uning asosida biz olib borayotgan ishlarimizning amaliy holatini ta’lim jarayonida va kundalik faoliyatda ma’lum bir Dastur asosida amalga oshiramiz.

Yaratilgan Dastur quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Informatsion
2. Motivatsion
3. Faoliyatga doir
4. Baholovchi-natijaviy

Dasturdagi har bir bosqich o‘quvchilarning dastlabki chet tili ta’limida intellektual ijodiy yondashuvini shakllantirishning mazmun –mohiyatini qamrab oladi. Ushbu dasturda o‘quvchilarning dastlabki chet tillarini o‘rganish jarayonidagi intellektual ijodiy yondashuvini shakllantirishimiz uchun chet tili materiallari asosida tayyorlangan o‘yinlar va topishmoqlardan, syujetli- rolly ertaklardan, chet tili va ona tilidagi hikoyalardan foydalanamiz.

Diagnostik qism. Pedagogik modelning bu qismida bolalarning dastlabki chet tilini o‘rganish jarayonidagi intellektual ijodiy yondashuvini shakllantirishda tavsiya etilgan metodlar, shakllar, usullarning qanchalik darajada samarali bo‘lganligini baholovchi mezonlar va darajalar orqali tekshirib olamiz. Ushbu bosqichda erishilgan yutuqlar sarhisob qilinadi hamda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar bartaraf etiladi.

Berilgan fikrlarga asoslanib shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, dastlabki chet tili ta’limida o‘quvchilarda intellektual ijodiy yondashuvini shakllantirishning pedagogik modelini tashkil etgan maqsadli, metodologik, amaliy va diagnostik qismlaridan ta’lim jarayonida unumli foydalanish kerakli natijaga erishish imkonini beradi. Erta yoshda bolalarga chet tillarini o‘rgatishning qulay va samarali usullarini qo‘llay olishimiz uchun pedagogik shart-sharoit yaratadi. Shuning bilan birga, aynan ushbu jarayonda o‘quvchilarda intellektual ijodiy yondashuvni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бондарь Е. И. Создание ситуации успеха – условие развития одаренной личности “Одаренный ребенок” - 2008. 93-97-с.
- 2.Гузеев В.В. Методы и организационные формы обучения. Москва: Народное образование, 2001. - 128 с.
- 3.Ительсон Л. Б. Лекции по общей психологии издательство: АСТ, Харвест. - 2002. - 896 с.
4. Ожегов С. И, Н. Ю. Шведова “Толковый словарь русского языка” - Москва: Азбуковник, 2000. - 944с.
5. Пиаже Ж. “Психология интеллекта”- Питер, 2004. -386 с.
- 6.Волынкина Н.В.”Интеллектуально-творческие способности: инфолингвистический путь развития” Воронеж: ИПЦ «Научная книга», 2014. - 218 с.